

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY





NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

Bosh muharrir

Kirgizbayev Abdugaffor
Karimjonovich
tarix fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir

Nazarov Abdug'ffor
Abdujabborovich, geografiya
fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir o'rinbosari

Imomov Otabek
Normirzayevich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Texnik muharrir

Xoshimov Sardorbek
Nozimjon o'g'li

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ"

2019-yildan boshlab O'zbekiston
Respublikasi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosati qarori
bilan quyidagi fan sohalari
bo'yicha OAKning
dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

01.00.00-Fizika-matematika
fanlari (14)

02.00.00-Kimyo fanlari (18)

03.00.00-Biologiya fanlari (17)

09.00.00-Falsafa fanlari (24)

10.00.00-Filologiya fanlari (26)

13.00.00-Pedagogika
fanlari (30)

Tahrir hay'ati a'zolari

Fizika-matematika fanlari

Xatamov Nosirjon Muydinovich, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Abdulazizov Baxromjon Toshmirza o'g'li, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Iskandar Abu-alievich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Dexqonov Farrux Nuriddin o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Boytilayev Dilmurod Axmataliyevich, fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy
xodim
Baymatov Paziljon Jamoldinovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Davlatov Abror Borijon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent
Inoyatov Shukurillo Turg'unboyevich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Jalolov Ravshan Maxmudjonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Xolboyev Azamat G'anisherjon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Maxammadaliyev Muxtor Tursunmuxammad o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Kimyo fanlari

Abdullayev Shavkat Vaxidovich, kimyo fanlari doktori, professor
Sultonov Boxodir Elbekovich, kimyo fanlari doktori, professor
Karimov Abdurashid Musaxonovich, kimyo fanlari doktori, professor
Xolmatov Dilshod Sottorjonovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Tulqinjon Abdusattor o'g'li, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Muradov Murod Toxirjonovich, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
Rasulov A'zamjon Avazjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Biologiya fanlari

Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, biologiya fanlari doktori, professor, akademik
Dexqonov Davron Burxanovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Batoshov Avazbek Risqulovich, biologiya fanlari doktori, professor
Turginov Orzimat Turdimatovich, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Komilov Doniyor Jo'rayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Egamberdiyev Mehmonjon Xudoyberdiyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Texnika fanlari

Ataxanov Shuhrat Nuriddinovich, texnika fanlari doktori, professor
Abdullayev Olim Gulamjanovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Jo'rayev Sherali Umarjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qishloq xo'jaligi fanlari

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Turg'unov Muzaffar Mirzaraxmatovich, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tarix fanlari

Rasulov Abdullajon Nuritdinovich, tarix fanlari doktori, professor
Dexkanov Narimon Burxonjonovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Haydaraliyev Shuhrat Abdulazizovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Madraximov Zoxid Sharofovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xalmuratov Baxtiyor Rejvaliyevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

“NamDU ilmiy axborotnomasi –
Научный вестник НамГУ”
jurnali O‘zbekiston Matbuot va
axborot agentligining
17.05.2016-yildagi
08-0075 -raqamli guvohnomasi
hamda O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
(AOKA) tomonidan 2020-yil
29-avgust kuni
1106-sonli guvohnomaga binoan
chop etiladi. “NamDU Ilmiy
Axborotnomasi” elektron nashr
sifatida xalqaro standart turkum
raqami
(ISSN-2181-1458) ga ega.

Ilmiy axborotnomaning
2025-8-soni NamDU
Muvofiqlashtiruvchi
Kengashining 2025-yil
30-avgustdagi 9-sonli
yig‘ilishida muhokama qilinib,
ilmiy to‘plam sifatida chop
etishga tavsiya etilgan
(Bayonnoma № 9).
Maqolalarning ilmiy saviyasi va
keltirilgan ma‘lumotlar uchun
mualliflar javobgar hisoblanadi.
Jurnal har oyda o‘zbek, rus va
ingliz tillarida elektron shaklda
chop etiladi.

**Maqolalar quyidagi rasmiy
web sahifa orqali qabul
qilinadi:**
journal.namdu.uz

Tahririyat manzili:
Namangan shahar, Boburshox
ko‘chasi, 161-uy
e-mail: science@namdu.uz

Iqtisodiyot fanlari

Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Baymirzayev Dilmurod Nematovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yoqubjonova Xulkaroy Yoqubovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Falsafa fanlari

Talapov Baxriddin Alijanovich, falsafa fanlari doktori, professor
Jo‘rayev Ro‘zimat To‘xtasinovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Gaffarova Gulchehra Gulamjanovna, falsafa fanlari doktori, professor
Zamilova Rimma Ramiliyevna, pedagogika fanlari doktori, professor
G‘apparov Elyorjon Otabekovich, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent
Muydinova Moxira Mukumjanovna, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Filologiya fanlari

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich, filologiya fanlari doktori, professor
Jafarov Botir Sattarovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sadikov Zoxid Yaqubjanovich, filologiya fanlari doktori, professor
Dosbayeva Nargiza Turg‘unpo‘latovna, filologiya fanlari doktori, professor
Tojiboyev Ilxomjon Usmonovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Karimova Farida Isakovna, filologiya fanlari doktori, dotsent
Siddiqov Qosimjon Abilovich, filologiya fanlari nomzodi, professor
Darvishov Ibroxim O‘rmanovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yuldashev Otabek Toshpulat o‘g‘li, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Geografiya fanlari

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich, geografiya fanlari doktori, dotsent
Mirzaaxmedov Xamidullo Saydamatovich, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Soliyev Iqboljon Raxmonberdiyevich, geologiya-minerologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, PhD

Pedagogika fanlari

Asqarova O‘g‘iloy Mamashakirovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovana, pedagogika fanlari doktori, professor
Ergashev Bobir Baxodirovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Muminova Dilafruz Akbaraliyevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Ismoilov Turobjon Umirzaqovich, pedagogika fanlari nomzodi, professor
Hamidova Muxayyoxon Obidovna, filologiya fanlari nomzodi, professor
Shodmanov Qodirjon Odilxanovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshibekova Munajat Xoshimovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Madaminov Baxodir Sharifjonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Urinov Bahrom Jamoliddinovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Sarimsakova Dilafruz Muhammadjonovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent
Axmedov Bexzod Madaminjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Rashidova Nodira Habibullayevna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tibbiyot fanlari

Abdullayev G‘ofurjon Rahimjanovich, biologiya fanlari doktori, professor
Nurmatov Yodgormirza Xatammirzayevich, tibbiyot fanlari doktori
Abdullayev Ulug‘bek Ubaydullayevich, tibbiyot fanlari nomzodi
Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-8]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Vakilova Nilufar Shavkat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tyutori
vakilovanilufar1@gmail.com

GLOBALASHUV DAVRIDA KOMMUNIKATIV MADANIYAT MUAMMOLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ madaniyat tushunchasining nazariy asoslari hamda uni shakllantirish jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilingan. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida kommunikativ madaniyatning dolzarbligi asoslab beriladi. Tadqiqotda ta'lim jarayonida hamda yoshlar o'rtasida muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar, ijtimoiy va psixologik omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kommunikativ madaniyatni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda madaniyatlararo muloqotning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ madaniyat, muloqot, globallashuv, ta'lim jarayoni, madaniyatlararo muloqot, psixologik omillar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Вакилова Нилуфар Шавкат кызы
Тьютор Чирчикского государственного педагогического университета

ПРОБЛЕМЫ КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы понятия коммуникативной культуры, а также проблемы, возникающие в процессе её формирования. Обоснована актуальность коммуникативной культуры в условиях глобализации, стремительного развития информационных технологий и усложнения социальных отношений. В исследовании рассматриваются основные препятствия в развитии культуры общения среди молодежи и в образовательном процессе, а также социальные и психологические факторы. Освещается значение педагогического подхода, информационно-коммуникационных технологий и межкультурной коммуникации в развитии коммуникативной культуры.

Ключевые слова: коммуникативная культура, общение, глобализация, образовательный процесс, межкультурная коммуникация, психологические факторы, информационно-коммуникационные технологии.

Vakilova Nilufar Shavkat qizi
Tutor at Chirchiq State Pedagogical University

ISSUES OF COMMUNICATIVE CULTURE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the concept of communicative culture, as well as the problems encountered in the process of its formation. The relevance of communicative culture is substantiated in the context of globalization, rapid development of information technologies, and the increasing complexity of social relations. The study examines the main obstacles to the development of communication culture among youth and in the educational process, along with social and psychological factors. The article also highlights the importance of pedagogical approaches, information and communication technologies, and intercultural communication in fostering communicative culture.

Keywords: communicative culture, communication, globalization, educational process, intercultural communication, psychological factors, information and communication technologies.

Kirish.

Hozirgi davrda insoniyat taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biri – bu axborot oqimining keskin ortishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvidir. Shu jarayonda shaxsning ijtimoiylashuvi, professional faoliyati va madaniy rivojlanishida kommunikativ madaniyat alohida ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat,

jamiyat va ta'limni axborotlashtirishning hozirgi darajasi, kompyuter vositachiligidagi muloqotning keng tarqalganligi bilan tavsiflanadi, shaxsning asosiy madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida kommunikativ madaniyatni shakllantirishga yangi yondashuvlarni izlashni taqozo etmoqda.

Jamiyatni global axborotlashtirish sharoitida kommunikativ madaniyatni shakllantirish muammosining yechimini izlash, birinchi navbatda, inson-ta'lim-madaniyat tizimida mavjud bo'lgan aloqalarni o'rganishni nazarda tutadi. Yangi ta'lim paradigmasi nuqtai nazaridan, ta'lim zamonaviy dunyoda shaxsning xavfsiz va qulay yashash vositasi, shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish usuli sifatida ko'rib chiqiladi [3].

Kommunikativ madaniyat muammolarining dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv sharoitida turli millat, din va ijtimoiy qatlam vakillari o'rtasida samarali muloqot madaniyatini rivojlantirish zarurati yanada kuchaymoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va axborot vositalarining keng tarqalishi insonlar o'rtasidagi muloqot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani kabi, turli salbiy oqibatlarga ham sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

So'nggi yillarda turli ilmiy yo'nalishlarda — pedagogika, sotsiologiya, psixologiya hamda tilshunoslikda kommunikativ madaniyat tushunchasi keng tadqiq qilinmoqda. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayniqsa yoshlar, talabalar va o'qituvchilar faoliyatida kommunikativ madaniyatni shakllantirish jarayonida turli ziddiyatlar, tushunmovchiliklar va to'siqlar uchrab turadi. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligiga, balki jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit qaror topishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kommunikativ madaniyatni o'rganish ikki yo'nalish doirasida amalga oshiriladi: gnoseologik va empirik [3; 5; 10; 13].

Kommunikativ madaniyat - bu shaxsning boshqa subyektlar bilan o'zaro munosabatlarga bo'lgan ehtiyoji, yaxlitligi va individualligi, shaxsning ijodiy salohiyati va muloqotning "asosiy xarakterini" (G.V. Zvezdunova) saqlab qolish qobiliyatida, atrofdagi subyektlarga xayrixoh munosabatda namoyon bo'ladigan pozitsiyasi.

YE.S.Gorelova va A.A. Kostenkolar kommunikativ madaniyatning asosi madaniyatni shaxsning tayyor madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni sifatida emas, balki doimiy mehnat, takomillashtirish, zo'riqish, harakat va shaxsning qobiliyati sifatida tushuntirishadi [4, 277].

"Kommunikativ madaniyat" torroq tushuncha sifatida "muloqot madaniyati" umumiy umumiy tushunchasining xususiyatlarini o'z ichiga oladi [1].

S.V.Znamenskaya ilmiy tadqiqotida oliy o'quv yurtida kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini nazariy asoslash, ishlab chiqish va tajriba yo'li bilan isbotlashga harakat qilgan [8, 24].

G.V.Korableva ilmiy maqolasida ta'kidlashicha [9, 94], kommunikativ madaniyatni shakllantirish aloqaning

ikkita asosiy kanali orqali amalga oshiriladi: og'zaki va og'zaki bo'lmagan.

I.M. Dzyaloshinskiy asarida globallashuv, axborotlashtirish va raqamlashtirish ta'sirida o'zgarib borayotgan zamonaviy kommunikatsiya sohasida sodir bo'layotgan jarayonlari, aloqa sohasida to'plangan bilimlar, qadriyatlar va meyorlarni belgilash uchun ishlatiladigan "kommunikativ madaniyat" konsepsiyasiga e'tibor beriladi [6].

Muhokama va natijalar.

Kommunikativ madaniyat - bu shaxsning asosiy madaniyatining bir qismi bo'lib, uning hayotda o'zini o'zi belgilashga tayyorligini ta'minlaydi, boshqalar bilan uyg'un munosabatlarni o'rnatadi.

Kommunikativ madaniyatning elementlari quyidagilardan iborat: hissiy madaniyat (hislar madaniyati), fikrlash madaniyati va nutq madaniyati. Muloqot madaniyati oila bilan shakllana boshlaydi: ijtimoiylashuvning asosiy agenti bo'lgan oila boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishga, boshqa madaniyatga bag'rikeng munosabatda bo'lishga, do'stona munosabatlar o'rnatishga qodir bo'lgan shaxsning dastlabki qiyofasini yaratishga chaqiriladi.

Darhaqiqat, kommunikativ madaniyat - bu ijtimoiy normalar va qoidalar, ma'naviy qadriyatlar, o'zaro ta'sir qilish usullari va shakllari to'plami bo'lib, shaxsiy xatti-harakatlarning eng yaxshi namunalari va qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Odamlar bilan ishlashda inson o'ziga xos shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak, bunda chet tilidagi ishbilarmonlik aloqalarini bilish yuqori professional raqobatbardosh xodimning ajralmas xususiyati hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik axborot sohasida kommunikativ madaniyat konsepsiyani talqin qilishda turli xil yondashuvlar mavjud: metodologik (YE.V.Bondarevskaya, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, G.I.Shukina va boshqalar), dunyoqarash (A.A.Bodalev, B.F.Lomov va boshqalar), psixologik (B.G.Ananyev, G.M. Andreyeva, I.A. Zimnyaya, I.B. Kotova, A.A. Leontyev, YE.I.Rogov, Y.A.SHerkovin va boshqalar), sotsiologik (T.M.Dridze, SI.Samigin, A.A.Rean, YE.V.Rudenskiy va boshqalar), lingvistik (B.N.Golovin, N.N.Koxterev, A.K.Mixalskaya va boshqalar), san'atshunoslik (P.M.Yershov, A.A.Murashov va boshqalar), moslashuvchanlik (V.T.Ashepkov, G.M.Yakusheva va boshqalar), ma'naviy (A.I.Soljenitsin, E.V.Sokolov va boshqalar), bu ilmiy bilimlarning bir sohadan ikkinchisiga o'zaro kirib borishi bilan izohlanishi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, professor E.V. Bondarevskaya tomonidan "kommunikativ madaniyat" tushunchasi chuqur o'rganilgan. Ya'ni, kommunikativ madaniyat konsepsiyasini samarali hamkorlik qilish va pedagogik muammolarni hal qilish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va shaxsiy xususiyatlar to'plami sifatida ishlab chiqdi. U buni shaxslararo muloqotda namoyon bo'ladigan

va xushmuomalalik, har bir shaxsning qadr-qimmatini tan olish kabi axloqiy meyorlarga asoslangan insonning umumiy madaniyatining bir qismi sifatida belgiladi [2].

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ madaniyat kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi qadriyatlar tizimi (G.V. Zvezdunova), kasbiy faoliyatning zaruriy sharti, maqsadi, usuli, vositasi, undagi o'zini o'zi anglash darajasi, uning natijasi va baholash mezonlari (G.V. Zvezdunova), shaxsiyatning jamlangan ifodasi (E.A. Popova), samarali faoliyatning usullari, usullari, organik imkoniyatlari majmui (I.F. Isayev) sifatida taqdim etilgan.

Kommunikativ madaniyat - bu shaxsning umumiy madaniyatining asosi, madaniyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u hayotda shaxsning o'zini o'zi belgilashga tayyorligini ta'minlaydi va o'zi va atrofdagi voqelik bilan uyg'unlikka erishish shartidir [4, 280].

Kommunikativ madaniyat - bu o'quvchilarga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatadigan va o'qitish va tarbiya jarayonini eng samarali tashkil etish va pedagogik muammolarni hal qilish jarayonida kommunikativ faoliyatni tartibga solish imkonini beradigan shaxsning bilim, ko'nikma va kommunikativ fazilatlar majmuidir.

Kommunikativ madaniyat nafaqat nutqiy savodxonlik yoki muloqot madaniyati bilan cheklanmay, balki insonning axloqiy qarashlari, ma'naviy qadriyatlari, psixologik tayyorgarligi va madaniyatlararo muloqotga tayyorligi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

O'qituvchining kommunikativ madaniyati kommunikativ ko'nikmalarni egallash va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ madaniyat - bu odamlar o'rtasidagi samarali va muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlarni belgilovchi meyorlar, qadriyatlar, bilim va ko'nikmalar majmui, shu jumladan muloqot qoidalari, tinglash, o'z fikrlarini ifodalash va muloqot jarayonida hissiy holatini tartibga solishdir. U til va nutq qobiliyatlarini va og'zaki bo'lmagan komponentlarni, shuningdek, muloqotning boshqa ishtirokchilarining his-tuyg'ulari va qadriyatlarini hisobga olish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Hozirgi globallashtirish va axborotlashuv davrida kommunikativ madaniyat insonning ijtimoiylashuvi, kasbiy faoliyati va shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. U faqatgina nutqiy savodxonlik yoki oddiy muloqot qoidalarini bilish bilan chegaralanmaydi, balki shaxsning axloqiy qadriyatlari, psixologik tayyorgarligi, madaniyatlararo muloqotga ochiqqligi hamda raqamli savodxonligi bilan ham uzviy bog'liqdir [15]. Shu bois, kommunikativ madaniyatni ko'p komponentli tizim sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir: kognitiv (bilim va tushunchalar), affektiv (emosional va axloqiy qadriyatlar), xulqiy-pragmatik (og'zaki va yozma nutq, noverbal belgilardan foydalanish), hamda texno-mediatic (raqamli muloqot meyorlari, media savodxonlik) tarkibiy qismlardan iboratdir [16].

Kommunikativ madaniyatni shakllantirishda bir qator dolzarb muammolar mavjud. Shaxsiy darajada ular faol tinglash va empatiya yetishmasligi, nutq va uslub tanlashdagi muammolar, noverbal vositalarning noto'g'ri qo'llanishi hamda o'z nutqiga nisbatan refleksiyaning pastligi ko'rinishida namoyon bo'ladi [17].

Guruh darajasida esa stereotiplar, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida ishonchning sustligi, rollarning noaniqligi va konfliktlarni konstruktiv boshqarish madaniyatining pastligi muhim to'siq bo'lib xizmat qiladi [16].

Jamiyat miqyosida esa axborotning haddan tashqari fragmentatsiyasi, dezinformatsiyaning ko'payishi, madaniyatlararo kompetensiyaning pastligi va kommunikativ meyorlarni tartibga soluvchi huquqiy-huquqiy asoslarning yetarli emasligi sezilmoqda [15].

Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya sohasida chuqur muammolar bor: tezkorlik va qisqa formatlarga asoslangan muloqot chuqur fikrlashni siqib chiqaradi, emoji va stikerlar mazmunni to'liq bera olmaydi, manipulyativ ritorika va dezinformatsiya kuchaymoqda, shaxsiy chegaralar buzilishi esa keng tarqalmoqda [11].

N. Jo'rayevning "Kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyati" nomli maqolasida ta'lim jarayonida uchraydigan bir qator muhim muammolar alohida ta'kidlab o'tiladi. Avvalo, o'quv jarayonida muloqotning biryoqlamaligi, ya'ni o'qituvchi markazida shakllanadigan yondashuv talabalarni faqatgina passiv tinglovchiga aylantirib qo'yishi ko'rsatib o'tiladi. Bu esa talabalar faoliyatini cheklab, ularning mustaqil fikrlash va erkin muloqotga kirisha olish qobiliyatini pasaytiradi.

Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning baholash mezonlarining yetarli darajada aniqlanmaganligi ham muammoni yanada keskinlashtiradi, chunki aniq mezonlarning yo'qligi natijalarni subyektiv baholashga olib keladi. Muallif, bundan tashqari, til, psixologiya, media savodxonlik va konfliktologiya kabi fanlarning bir-biridan uzilgan holda o'qitilishi ham integratsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu holat natijasida o'quvchilar turli fanlarda o'zlashtirgan bilimlarini yagona tizimga keltira olmaydi. Shu bilan birga, real hayotiy muloqot vaziyatlarini mashq qilish imkoniyatlari kamligi ham kommunikativ kompetensiyaning shakllanishini sekinlashtiruvchi omillardan biri sifatida ko'riladi [7].

Mazkur muammolarning ildizi bir nechta omillarga borib taqaladi. Kognitiv omil sifatida tanqidiy fikrlash, dalil keltirish va argumentatsiya bo'yicha bo'shliqni ko'rsatish mumkin. Affektiv omillar esa ijtimoiy qo'rquv, o'z fikrini ifoda qilishdan uyalish va xavfsiz muloqot muhiti yo'qligidan kelib chiqadi. Institutsional jihatdan esa ta'lim va boshqa sohalarida kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga oid aniq reglament va siyosatlar ishlab chiqilmagan.

Z.To'xliyevaning "Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik omillari" nomli maqolasida muloqot madaniyatiga ta'sir etuvchi bir qator muammolar yoritib berilgan. Muallifning ta'kidlashicha, texnologik omillar zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, "like" va "share" kabi tezkor reaksiyalar mexanizmlari chuqur mazmunli dialogni siqib chiqarib, talabalarda muloqotning yuzaki shaklda kechishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, Z.To'xliyeva madaniy-lisoniy omillarga ham alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, ko'p tillilik sharoitida yuzaga keladigan kod-almashinuvi strategiyalarini boshqarishdagi qiyinchiliklar muloqot samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi [12].

Amerikalik tadqiqotchilar P. Watzlawick, J. Beavin va D.Jacksonlarning "Pragmatics of Human Communication" nomli asarlarida muloqot madaniyatidagi muammolarni bartaraf etish maqsadida "4T modeli" taklif etiladi. Ushbu model kommunikativ madaniyatni shakllantirishning to'rt asosiy yo'nalishini qamrab oladi.

Birinchisi, til omili bo'lib, unda meyor, janr, uslub hamda ko'p tillilik siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi yo'nalish, tafakkur, talabalarni tanqidiy fikrlash, dalillar keltirish va mantiqiy tuzilmani shakllantirishga yo'naltiradi. Uchinchi yo'nalish, ta'sir, notiqlik san'ati, empatiya, etik meyorlar va konfliktlarni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. To'rtinchisi esa, texnologiya, ya'ni media savodxonlik, raqamli etiketa, shaxsiy maxfiylik va axborot xavfsizligi masalalariga e'tibor qaratadi.

Tadqiqotchilar ushbu yo'nalishlar asosida aniq baholash indikatorlari, trening modullari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydilar [14].

B.Rasulovning "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yoshlar muloqoti madaniyati" nomli ilmiy ishida kommunikativ madaniyatni shakllantirish va uni rivojlantirishning samarali mexanizmlari keng yoritilgan. Muallif ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishning amaliy yo'llaridan biri sifatida o'quv dasturlariga maxsus "Kommunikativ madaniyat va media savodxonlik" modulini joriy etishni taklif etadi. Ushbu modul yoshlarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri muloqot qila olish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, case-stadi, rol o'yinlari, debatlar, mikro-o'qitish va video-feedback kabi innovatsion metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Shuningdek, flipped classroom texnologiyasi orqali talabalar nazariy bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirib, auditoriya mashg'ulotlarida amaliy mashqlar, tahlillar va muhokamalarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lishlari

maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali, interaktiv va talabalar faol ishtirokiga yo'naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi. Muallif, shuningdek, universitet va ta'lim muassasalari doirasida onlayn etiketa kodeksini ishlab chiqish, fact-check protokollarini joriy etish hamda akademik halollik tamoyillarini mustahkamlashni kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etadi. Bu chora-tadbirlar yoshlarning virtual makondagi xulq-atvori, axborot manbalariga tanqidiy yondashuvi va halollik prinsiplariga amal qilishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun muntazam treninglar tashkil etish, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda konfliktologiya bo'yicha malakani oshirish, yuqori kurs talabalar tomonidan past kurs talabalariga mentorlik qilish mexanizmini yo'lga qo'yish ham samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi omillar sifatida ta'kidlanadi. Bu jarayon nafaqat talabalarning bilim almashinuvi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlik va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlaydi. Umuman olganda, B.Rasulov tomonidan ilgari surilgan ushbu takliflar yoshlarning muloqot madaniyatini yuksaltirish, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitida faol, mas'uliyatli va ongli ishtirok etishga tayyorlashda muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi [11].

Quyidagi model kommunikativ madaniyatni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan amaliy yo'riqnomadir. Uning markazida to'rtta yo'nalish — talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar va shaxsiy rivojlanish — turadi. Har bir yo'nalishda aniq, qisqa va bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar tanlangan: faol tinglash, muloqotdagi mantiqiy asoslash, noverbal belgilarni ongli qo'llash, onlayn etiketa va refleksiya odatlarini kuchaytirish. Modelning asosiy g'oyasi shuki, muloqot sifati faqat auditoriyada emas, oilada va raqamli muhitda ham shakllanadi; shu sababli tarbiyaviy, didaktik va shaxsiy odatlar bir vaqtning o'zida mustahkamlanadi.

Kommunikativ madaniyatni rivojlantirish modeli



1-rasm. Kommunikativ madaniyatni rivojlantirish modeli

Xulosa.

Bizning fikrimizcha, kommunikativ madaniyat bugungi davrda insonning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy muvaffaqiyatini ham belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Har birimiz kundalik hayotda, ta'lim jarayonida yoki ish faoliyatida qanday muloqot qilishimiz, o'z fikrimizni qanday ifodalashimiz va boshqalarni qanchalik to'g'ri tinglay olishimiz natijalarimizga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, ko'pincha odamlar muloqotda shoshqaloqlik qiladi, bahsda o'zini ustun qo'yishga intiladi yoki raqamli muhitda muloqot odobiga amal qilmaydi. Bu esa ijtimoiy ishonchning pasayishiga va nizolarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Kuzatuvlarimiz natijasida odamlar bir-birini tinglashga ko'proq vaqt ajratganda, hatto qarama-qarshi fikrlar ham tinch muhokamaga aylanadi. Demak, kommunikativ madaniyatning eng muhim tomoni — tinglash va tushunishga intilishdir. Shuningdek, texnologiyalarning kengayib borishi bilan onlayn muloqotda ham mas'uliyatli va odobli bo'lish talab etiladi.

Bu o'rinda yosh avlodning raqamli odob-axloq qoidalarini bilishi va ularga amal qilishi muhim.

Xulosa.

Aytishimiz mumkinki, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish bir kunlik jarayon emas, balki doimiy o'rganish va mashq qilishni talab etadi. Buning uchun oilada bolaga to'g'ri muloqot namunalari ko'rsatish, maktab va universitetlarda esa muloqot madaniyatiga oid maxsus mashg'ulotlarni joriy qilish maqsadga muvofiq. Agar shaxsiy va ijtimoiy darajada bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilsa, kelajakda jamiyatda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamkorlik ancha mustahkam bo'ladi.

Bugungi kunda yoshlarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishning pedagogik omillari o'zaro ta'sir ko'nikmalarini mashq qilish uchun shart-sharoitlarni yaratish, o'qitishning turli shakllaridan (mashqlar, o'yinlar) foydalanish, suhbatdoshga hurmatli munosabatni rivojlantirish va muloqotning boshqa axloqiy tamoyillari, shuningdek, samarali og'zaki va og'zaki bo'lmagan o'zaro ta'sirga hissa qo'shadigan kommunikativ vakolatlarni rivojlantirishni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Бодалев А.А. Личность и общение. - М.: Педагогика, 1983.
2. Бондаревская Э.В. Педагогическая культура как общественная и личная ценность // Педагогика, 1999. №3, - С.37-43.
3. Ващекин Н.П. Информатизация общества как феномен культуры// Информатика и культура: Сб. науч. Трудов - Новосибирск: Наука. Сиб. отделение, 2010, с.24-29.
4. Горелова Е.С., Костенко А.А. Коммуникативная культура в системе базовой культуры личности // Экономика и социум. 2019. №4 (59), -с.277.
5. Гусева Т.И. Персональные компьютеры в сфере информационных ресурсов // Социальная информатика. - М., 2010,154 с.
6. Дзялошинский И.М. Коммуникация и коммуникативная культура. - Москва : Ай Пи Ар Медиа, 2022. - 606 с.
7. Jo'rayev, N. (2020). Kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyati. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Знаменская С.В. Педагогические условия формирования коммуникативной культуры студентов в процессе профессиональной подготовки в вузе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Ставрополь, 2004. –с.24
9. Кораблева Г.В. Основы коммуникативной культуры // Известия ОГАУ. 2004. №1-1, -с.94.
10. Макарова И.В. Опыт и перспективы развития использования современных телекоммуникаций // 7-я международная конференция «Информационные технологии в образовании». - М., 1998, с. 24 - 25.
11. Rasulov, B. (2021). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yoshlar muloqoti madaniyati. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
12. To'xliyeva, Z. (2019). "Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik omillari". Pedagogika va psixologiya jurnali, №4, 45–52.
13. Arndt J., Greenberg J., Pyszczynski T., Solomon S., Subliminal exposure to death-related stimuli increase defense of cultural worldview//Psychological Science, 2007.Vol.8, 379, 6 p.
14. Watzlawick, P., Beavin, J., & Jackson, D. (1967). Pragmatics of Human Communication. New York: W.W. Norton.
15. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Boston: Beacon Press.
16. Hall, E. T. (1976). Beyond Culture. New York: Anchor Books.
17. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari.	
A.Boymirzayev.....	572
Zichlik funksional nazariyasi asosida VESTA, Burai va Quantum ESPRESSO dasturlarining fizikadagi o'mi va qo'llanilishi.	
D.Xajibayev, I.Jaksimuratov, A.Jalekeshov.....	577
Grammar teaching approaches in primary efl (5th and 6th grades): a comparative study of deductive and inductive methods.	
X.Azamatova.....	582
Texnologik jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari.	
Sh.Shoyimov.....	588
Tibbiy ta'limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari.	
G.Muxammadova.....	592
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari.	
S.Xabibullayeva.....	596
O'quvchilarda internet savodxonligi madaniyatini tarbiyalash va rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.	
M.Dedaxonova.....	600
Alaliya nutq nuqsonining sabablari, belgilari va bartaraf qilish usullari.	
Sh.To'reniyazova.....	603
Klax pedagogikasining zamonaviy ta'limdagi ahamiyati va amaliy qo'llanilishi.	
N.Adilova.....	608
Raqamli axborot muhitida yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tahdidlar va xatarlarni tahlil qilish.	
B.Axmedov.....	612
Tizimli yondashuvga asoslangan holda fizika fanini kimyo ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitish metodikasi.	
D.Begmatova, O.Iskandarov, B.Yakubova, O.Suvonova.....	617
Talabalarning xalq hunarmandchiligi bo'yicha ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish holati.	
S.Esanova.....	622
"Cheksiz chuqur potensial o'ra" mavzusini raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish.	
E.Muxtarov.....	625
Globalashuv davrida kommunikativ madaniyat muammolari.	
N.Vakilova.....	632
Yuqori sinf o'quvchilarini jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar taxlili.	
G'.Abdullayev.....	637
Geografiya darslarida gis va raqamli xaritalar orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirish.	
D.Davlatova.....	641
Matnni modellashtirishni o'rgatish tamoyillari. O'qitishning umumiy didaktik tamoyillarini amalga oshirish.	
M.Hamrayeva.....	645
Forsight modellashtirish va qaror qabul qilish kompetensiyalarining integratsiyasi.	
S.Hasanova.....	649
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari.	
Z.Latibjonova.....	652
O'quv mashg'ulot guruxi futbolchilarini ampulasi bo'yicha jismoniy rivojlanganligini tuzulishi.	
K.Shokirjonov.....	655
Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari.	
J.Karimov.....	660
"Molekulyar fizika" bo'limini fizika va kimyo fanlarining integratsiyalashgan holda o'qitish zarurati.	
M.Ergasheva, E.Vazirova.....	663
Tarix fanini o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar.	
J.Muhammadiyev.....	666
Tarbiyaviy faoliyatning kompetensiya shakllanishidagi o'rni: axloqiy, madaniy va ijtimoiy tarbiya jarayonida umumkasbiy ko'nikmalarning integratsiyasi.	
S.Sanayeva.....	670
Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish.	
M.Rejabboyeva.....	675
Malakali bokschilarning jangovar faoliyatini modelli tavsiflari.	
V.Anashov.....	679